



**INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA ESHITISHDA KAMCHILIGI BO'LGAN
O'QUVCHILARNI O'QITISH USLUBIYATI.**

Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim fakulteti maxsus pedagogika
kafedrası stajyor o'qituvchisi Qodirova Mahzuna
Shamshidin qizi
Mahzunaqodirova74@gmail.com

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233452>

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limga qabul qilinuvchi eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar toifalari, oddiy maktabda bu toifa o'quvchilarni o'qitish uslublari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar : inklyuziv ta'lim, zaif eshituvchi bola, koxlear implant, nutq, eshitish, bilish jarayonlari, eshitish idroki.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limini yanada takomillashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan

texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ham bu boradagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Xususan, Qonunning 20-moddasida: "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan" – deb keltirib o'tilgan .

Inklyuziv ta'lim-imkoniyati cheklangan bolalarni maktablarda sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishi alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim shakli hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limga jalb qilinuvchi eshitishda kamchiligi bo'lgan o'quvchilar ikki toifaga bo'linadi:

- birinchi toifasi koxlear implant qo'yilgan;

- ikkinchi toifalilar esa eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar. Eshitish apparatini taqib eshitish tajribasi va elementar talaffuz hamda og'zaki so'zlashish tajribasi mavjud. Ba'zilarida nutqi 30-40% gacha shakllangan holatda bo'ladi. Dastlab o'quvchilarda eshitish va nutq tajribasi minimal darajada bo'ladi. Darsdan keyin eshitish trinojyori orqali mashg'ulotlar olib borilganda, dastlabki yarim yillikdan keyin bu o'quvchilarda nutqni egallashi jadallashadi. Bunda albatta oilaning o'rni juda katta bo'lib uyda bola doimiy nutqiy muhitda bo'lib turishi, darsda o'tilganlarni mustahkamlab borishi, eshitish qobiliyatini rivojlantirish mashqlarini bajarishi talab qilinadi. Korreksiyalovchi mashg'ulot (Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlar misolida) har kuni 20 minutdan maxsus pedagog tomonidan olib boriladi va ikki qismdan iborat bo'ladi. Korreksiyalovchi mashg'ulot surdopedagog tomonidan olib boriladi. Mashg'ulotning birinchi qismi eshitishga o'rgatish hamda eshitish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Ikkinchi qismi talaffuz va og'zaki so'zlashuv nutqni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Bunda uy vazifasiga berilgan nutq materiali, keyingi dars uchun yangi mavzu materialining hammasi eshitib qabul qilish, taqlid qilib aytish yo'li bilan olib boriladi. Maxsus o'qituvchi har kuni o'tilgan mavzuni mustahkamlaydi, uy vazifasini bajartiradi, keyingi darsda takrorlash va mustahkamlash bo'yicha savol va topshiriqlarni bola bilan tayyorlaydi. Keyin



barcha fanlar bo'yicha keyingi darsda o'tiladigan mavzuni bir kun oldin o'quvchi bilan yakka tartibda ishlab chiqadi va keyingi darsda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Agar inklyuziv sinfga eshitishda muammosi bo'lgan eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bola hamda koxlear implantatsiyasi bo'lsa uni nutqini tekshirishda talaffuz mashg'ulotlarining rejasi o'tkazilgan maxsus tekshirish natijalari asosida tuziladi. Tekshirish jarayoni esa, har bir o'quvchining psixofizik va nutqiy eshituv holatining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Nutqiy nafasini esa nafas mashqlari orqali to'g'rilanadi. Maxsus o'qituvchi o'quvchilarga nutqiy nafasdan to'g'ri foydalanishni o'rgatadi, davomiy (uzun) nafasni bosqichma-bosqich, asta sekin sifat jihatdan o'sish asosida shakllantiradi. Ovoz ustida esa: - nutqiy materialni me'yordagi balandlik, kuch va tembrdagi ovoz bilan o'qituvchi yordamida yoki mustaqil talaffuz qilishga; - eshitish orqali ovoz o'zgarishini farqlash va ovoz kuchiga moslashgan holda talaffuz orqali takrorlash: sekin-asta kuchayish: “past-balandroq-baland”, ovoz kuchsizlanishi: “baland-pastroq-past”; - ovoznining tabiiy diapazonini farqlash: odatiy ohang, o'rta darajadan ko'tarish, baland va o'rta darajadagi ovozdan pasaytirish; - ovoz kuchini o'zgartirish: me'yoriy (odatiy)-baland-past; - shivirlash orqali nutqiy materialni talaffuz qilish (o'qituvchining talabi asosida, suhbatdosh o'rtasidagi masofa, xonaning kengligi, vaziyat taqozosi bilan sokinlikka rioya qilish). Nutqning ritmik-ohangini his etish va farqlashga o'rgatishda gap bo'laklari bo'yicha nutqiy birliklarni farqlash va talaffuz qilish: urg'uni his qilish, farqlash, xabar, so'roq, xis-hayajonni yetkazish (o'qituvchi yordamida yoki mustaqil)dan foydalaniladi. Talaffuzni shakllantirish mashg'ulotlari har bir o'quvchi uchun alohida nutqiy tekshirish natijalari asosida tuziladi. 1-sinflarda asosiy fonemalar asosida “Tovush qo'yish” mavzulari rejalashtiriladi. 2-sinfdan 2- konsentr tovushlari qo'yiladi. 1- konsentr ustida yana “Qo'yish” ishlari davom etadi. 3-sinfdan boshlab, o'quvchilarning nutqiy rivojlanish holatiga ko'ra mavzular rejalashtiriladi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida an'anaviy va innovatsion vizual vositalardan foydalanish o'quvchining eshitish qobiliyatini, aqliy va nutq faoliyatini faollashtiradi, umuman kognitiv faolligini oshirishga yordam beradi, tengdoshlari bilan muloqot qilish uchun motivatsiyani shakllantiradi, shuningdek o'quvchilar jamoasida hamkorlikni tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Vizual usullar (tabiiy ob'ektlar va ularning modellari, plakatlar, jadvallar, diagrammalar, rasmlar va boshqalar), asboblarni, eksperimentlarni, kino va videofilmlarni, kompyuter taqdimotlarini va boshqalarni namoyish qilishni o'z ichiga oladi. Vizual usullardan foydalanish o'qituvchidan eshitish kamchiligi bo'lgan maktab o'quvchilarining bilish jarayonlarining xususiyatlarini hisobga olishni va mavjud sxemalar, jadvallar, hayotga yaqin, haqiqiy tasvirlardan foydalanishni talab qiladi, Vizual usullardan foydalanish majburiy nutqni qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Amaliy o'qitish usullari (mashqlar usuli, drammatizatsiya, nazariy va amaliy ishlar, o'yinlar va boshqalar) eshitish kamchiligi bo'lgan bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirish, ob'ektiv va universal kompetentsiyalarni shakllantirish uchun o'qitish jarayonida keng qo'llaniladi. Odatda, amaliy, vizual va og'zaki usullar murakkab sharoitda qo'llaniladi, bu eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarda dunyo haqidagi tushunchalarning senso-motor asosini shakllantirishga ma'lumotni to'liq idrok etish va tushunish, uni saqlash va qayta ishlashga imkon beradi. Amaliy usullardan foydalanish eshitishda kamchiligi bo'lgan maktab o'quvchilarining xususiyatlarini (og'zaki ko'rsatmalarni tushunishning o'ziga xos xususiyatlari, vizual fikrlash shakllarining ustunligi va boshqalar) hisobga olishni talab qiladi. Eng keng tarqalgan amaliy usul —mashq qilish-uni o'zlashtirish yoki uni amalga oshirish sifatini oshirish uchun harakatni tizimli va takroriy bajarish. Mashq qilish eshitishda kamchiligi bo'lgan o'quvchi darsga e'tibor qaratishni o'rganadi; o'qituvchi dastlab bolaga algoritmik ko'rsatmalarni taklif qiladi, uning harakatini boshlashga e'tiborini qaratadi va ko'rsatmalarni aniq idrok etishga, harakatlarni tahlil qilishga, faoliyat natijalarini umumlashtirishga va olingan tajribani so'zda mustahkamlashga undaydi. Bundan tashqari, bolaga o'qituvchi yoki sinfdoshi bilan birgalikda o'qish va topshiriqni bajarish kabi ish turlari taklif etiladi; o'qituvchi yoki o'rtoq bilan tushuntirish va mashq qilish uchun topshiriqni bajarish namunasini ko'rsatish; bolaning topshirig'ini mustaqil ravishda o'qish va uni amalga



o'shinish jarayonida o'z harakatlarini batafsil tushuntirish (sharhlash), avval o'qituvchi bilan, keyin esa o'rtoq bilan yoki guruhda bola ko'rsatmalarni tushunishni boshlaganda va mashqlarni mustaqil ravishda bajarganda, o'zaro ta'lim jarayonida faol bo'lganda bolada har tomonlama rivojlanish kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil etish shakllari inkluziv ta'lim sharoitida muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Maktabda mavjud bo'lgan an'anaviy sinf tizimi sharoitida guruh, kichik guruh (jamoalar), juftlikda ishlash va individual ishlash kabi ish shakllaridan keng foydalanish kerak. Koxlear implantli yoki zaif eshituvchi bolaning sinfning jamoaviy mashg'ulotlarida ishtirok etish uchun yaxshi imkoniyatlar darslarni nostandart shaklda o'tkazishni talab qiladi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida” 638-son qarori
3. Inkluziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi nomli metodik qo'llanma. S.Mo'minov Sh.Axmedova G.Alimova
4. Kuzmicheva E.P. Metodika razvitiya sluxovogo vospriyatiya gluxix uchashixsya. M.: “Prosvesheniye”, 1991 g.
5. Nazarova L.P. Metodika sluxovoy raboti v shkole slabosl bunashix. -M.: «Prosvesheniye», 1981